

THE ORIENTALIST WORK OF THE CHARLES RIEU

Ozoda Tahirovna TAJIBAEVA

Associate Professor, PhD

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

CHARLZ RIYONING SHARQSHUNOSLIK FAOLIYATI

Ozoda Tohirovna TOJIBOYEVA

PhD, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОРИЕНТАЛИСТСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЧАРЛЬЗА РИУ

Озода Тахировна ТАДЖИБОЕВА

Доцент, PhD

Ташкентский государственный университет узбекского

языка и литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан, ozoda@navoiy-uni.uz <https://orcid.org/0000-0003-4742-8357>

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Tojiboyeva O.T. Charlz Riyoning sharqshunoslik faoliyati.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 6. — B. 285–295.

<https://doi.org/10.36078/1767730336>

Received: September 26, 2025

Accepted: December 17, 2025

Published: December 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. It is well known that the collections of European countries contain numerous rare and invaluable sources of Eastern literature. These rare sources, many of which are lost under various circumstances, formed the basis for the development of Oriental studies abroad. Each of the foreign scholars who studied the sources of Turkic literature made substantial and lasting contribution to the development of this field. The description and scholarly study of the sources of Alisher Navoi's works, which are most extensively represented in these collections, were first carried out by prominent French, German, British, and Russian scholars. The sources of Turkic literature in Great Britain and the history of their study also constitute an independent and insufficiently explored research area.. Particularly noteworthy is the scholarly work of the English scholar Charles Riou, who introduced the world to the sources of Persian and Turkic literature in the nineteenth century. This scholar made a pioneering contribution to familiarizing the peoples of Europe with medieval Eastern literature and history by systematically cataloguing and interpreting the sources of the British Museum. Today, almost every researcher working with sources in the field of Oriental studies and Turkology refers to this scholar's descriptions. In particular, his detailed, methodologically grounded, and philologically precise descriptions of rare sources create significant scholarly convenience for researchers. This article presents information about the scholarly work of the English Orientalist Charles Riou and offers an analytical overview of his contribution to source studies. It identifies the principles he used when describing Persian and Turkic literary sources and clarifies the methodological foundations of his descriptive approach. It demonstrates that his approaches and analytical insights reflections in his descriptions resonate with contemporary scholarly discussions. The significance of both catalogues authored by the scholar for

modern scholarship is critically substantiated.

Keywords: source; English Orientalism; catalog; description; interpretation; history.

Annotatsiya. Sharq adabiyotining nodir manbalari Yevropa davlatlari fondlarida saqlanishi yaxshi ma'lum. Turli yo'llar bilan borib qolgan bu nodir manbalar xorijda ko'plab sharqshunoslarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan. Turkiy adabiyot manbalarini tadqiq etish orqali har bir xorijiy olim fan rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Bu fondlarda eng ko'p tarqalgan Alisher Navoiy asarlari manbalarini tavsiflash, ilmiy o'rganish ham fransuz, nemis, ingliz, rus olimlari tomonidan ilk bora amalga oshirilgan. Turkiy adabiyotning Buyuk Britaniyadagi manbalari va ularning o'rganilish tarixi ham alohida tadqiqot mavzuyini taqozo etadi. XIX asrda forsiy va turkiy adabiyot manbalarini dunyoga ma'lum qilgan ingliz olimi Charlz Riyoing ilmiy faoliyati alohida diqqatga sazovor. Olim Britaniya muzeyidagi manbalarni tavsiflash orqali o'rta asrlar Sharq adabiyoti, tarixini Yevropa xalqlariga tanitishga katta hissa qo'shgan. Bugun sharqshunoslik, turkologiya sohasida manbalar bilan ishlaydigan har bir tadqiqotchi olimning tavsiflariga murojaat qiladi. Ayniqsa, noyob manbalarning batafsil izohi olimlar uchun qulaylik yaratadi. Maqolada ingliz sharqshunos olimi Charl Riyoing ilmiy faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Olimning forsiy va turkiy adabiyot manbalari tavsifidagi prinsiplari belgilangan. Tavsiflardagi yondashuvlari, mulohazali fikrlari fanda davom etib kelgan bahslar bilan mushtarakligi ko'rsatilgan. Olim yaratgan har ikki kitobning fandagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: manba; ingliz sharqshunosligi; katalog; tavsif; talqin; tarix.

Аннотация. В фондах европейских стран хранятся редкие источники восточной литературы. Эти источники, утраченные при разных обстоятельствах, создали основу для развития многих востоковедов за рубежом. Каждый из зарубежных учёных, исследовавших источники тюркской литературы, внёс большой вклад в развитие науки. Описание и научное изучение источников произведений Алишера Навои, наиболее широко представленных в этих фондах, впервые было осуществлено французскими, немецкими, английскими и русскими учёными. Источники тюркской литературы в Великобритании и история их изучения также требуют отдельной исследовательской темы. Особого внимания заслуживает научная работа английского учёного Чарльза Риу, познакомившего мир с источниками персидской и тюркской литературы в XIX веке. Учёный внёс большой вклад в ознакомление народов Европы со средневековой восточной литературой и историей, описывая источники Британского музея. Сегодня каждый исследователь, работающий с источниками в области востоковедения и тюркологии, обращается к описаниям этого учёного. В частности, подробное описание редких источников удобно для исследователей. В статье представлена информация о научной деятельности английского ориенталиста Чарльза Риу. Определяются принципы, которыми пользовался ученый при описании персидских и тюркских литературных источников. Показано, что его подходы и глубокие размышления в описаниях переключаются с продолжающимися научными дискуссиями. Обосновывается значение для науки обеих книг, созданных ученым.

Ключевые слова: источник; английский ориентализм; каталог; описание; интерпретация; история.

Kirish

Sharqning mazmunga boy adabiyoti o'z davridanoq G'arb olamiga kirib borgani, G'arblik olimlarda bu adabiyotni o'rganish uchun katta ishtiyoq uyg'otgani tarixdan yaxshi ma'lum. Yevropalik olimlar Sharqning buyuk forsiy shoirlari qatorida turkiy adabiyotni o'rganishda ham jiddiy sa'y-harakat ko'rsatganlar. Temuriylar davri adabiyoti vakillari ijodi, ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur adabiy merosini o'rganish borasida salmoqli ishlarni bajarganlar. Bunga turkiy adabiyot namunalarining dunyo kutubxonalari bo'ylab tarqalib ketgani, qirollik kutubxonalari fondlarida saqlanishi ham qulay imkoniyat bergan. Sharq uyg'onish davri adabiyotida muhim o'rin tutgan Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish o'z davridanoq boshlangan edi. Temuriylar davri kitobatchilik san'atini o'zida ifoda etgan Alisher Navoiy asarlari ko'plab davlatlarning fondlariga borib qolish tarixi ham alohida mavzuni taqozo etadi. G'arb olimlarining e'tiborini tortgan va ularning mashhur sharqshunos bo'lib yetishishlariga zamin yaratgan bu asarlar hozirda noyob manba sifatida qadrlanadi.

XIX asr ingliz sharqshunoslari orasida amaliy manbashunoslikni boshlab bergan ingliz sharqshunos olimi Charlz Riyoning faoliyatini o'rganish turkologiya, navoiyshunoslik tarixidagi muhim ma'lumotlarni asoslashga xizmat qiladi. Zero, Charlz Riyo tayyorlagan Britaniya muzeyidagi Sharqqa oid qo'lyozmalarning bibliografik tavsifi dunyo olimlari uchun muhim manba vazifasini bajarib kelmoqda. Charlz Riyo tartib bergan bibliografik xarakterdagi kitoblar G'arb ilm-fanini Sharq adabiyoti bilan tanishtirgan kitoblar sirasiga kiradi. Garchi olim tuzgan bibliografik manbalarga ko'p bora murojaat qilingan bo'lsa-da, alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus yoritilgan emas. Shunga ko'ra ingliz sharqshunosi Charlz Riyoning ilmiy faoliyati va manbalar tavsifidagi yondashuv tamoyillarini o'rganish ishning **dolzarbligini** belgilaydi. Tahlilga tortilgan har ikki forsiy va turkiy asarlar tavsifiga doir manbalar ilk bora to'liq o'rganilayotgani o'zbek adabiyotshunosligi, manbashunoslik yo'nalishlari kontekstida **yangiligi** bilan muhim ahamiyatga ega.

Sharq adabiyotining Britaniyadagi manbalari, ularni o'rgangan zabardast sharqshunoslar, jumladan, bibliografik kataloglari bilan fan rivojiga samarali hissa qo'shgan Charlz Riyoning ilmiy faoliyatini yoritish **tadqiqotning maqsadi** hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha **vazifalar** belgilab olingan: 1. Charlz Riyoning ilmiy laboratoriyasi, sharqshunoslik, turkologiya sohasiga yetaklagan omillar, ilmiy izlanishlari doirasini yoritish. 2. Olim tuzgan Britaniya muzeyidagi kitoblar sharhiga oid bibliografik tavsiflarni tekshirish. 3. Tavsiflarda olimning ilmiy yondashuv prinsiplarini belgilash. 4. Manbalar tavsifidagi bahsli masalalarga muallifning bahosi, ta'rifini yoritish. 5. O'zbek manbashunosligida noyob sanalgan asarlar manbalarini ko'rsatib o'tish. 6. Alisher Navoiy asarlari manbalariga doir ma'lumotlarni ochiqlash. 7. Mazkur kataloglarning fandagi o'rni va ahamiyatini yoritish.

Tadqiqot uchun **material sifatida** Charlz Riyo tomonidan Britaniya muzeyidagi turkiy va forsiy adabiyot manbalari tavsifiga doir kitoblari olindi [Rieu 1888, 1895]. Undagi ma'lumotlar olimning bergan sharhlari

asosida o'zbek adabiyoti tarixi, manbashunosligidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tekshirildi.

Asosiy qism

Turkiy adabiyot dunyo adabiyotshunosligida katta Sharq adabiyoti maydonida o'rganilgani fanda ma'lum. G'arb olimlari e'tiborini tortgan Alisher Navoiy ijodi ilk bora fransuz olimlari Bartelemo d'Erbelo [B. d'Herbelot 1677], Silvester de Sasi [Silvestre de Sacy 1793], Pave de Kurteyl [Pavet de Courteille 1870: 562], nemis olimlari Martin Xartmann [Hartmann 1902], Herman Vamberi [Vamberi 1867: 359] tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu borada ingliz olimlarining ham hissasi beqiyos. Jumladan, Artur Lumley Devids [Davids 1832: 305], Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'at "Sanglox"ning ilmiy akademik nashrini tayyorlagan Jerard Kloson [Clauson 1960] va ko'plab olimlar fan rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Amaliy manbashunoslikni boshlab bergan sharqshunoslar qatorida Gustav Flyugelning ham tadqiqoti fanda muhim o'rin tutadi [Flügel 1865: 323]. O'zbekistonda amaliy manbashunoslik, bibliografik tavsiflash ishlari ilk bora A.A.Semyonov tomonidan bajarilgan [Semenov 1925, 1935, 1940, 1956].

Olimning ilmiy faoliyatini yoritishda *biografik metod*dan olimning ilmiy laboratoriyasiga kirib borildi, sharqshunos sifatidagi yetilish bosqichlari tekshirildi. Bu bilan olimning ilmiy portreti shakllantirildi. Manbalarni tahlil qilish davomida matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishiga xos *tavsiflash*, *tasniflash* usullaridan foydalanildi. Manbalarning *matn tarixi* yoritildi. Charlz Riyoning manbaga yondashuvidagi ilmiy tadqiqot prinsiplari belgilab olindi.

Odatda, sharqshunos olim faoliyatini tekshirish badiiy asar yaratuvchisi bo'lgan ijodkor faoliyatini o'rganish singari qiziq va zaruriy vazifa emasdek ko'rinadi. Chunki inson tafakkurining oliy mahsuli sifatida e'tirof etilayotgan badiiy asar uni yaratgan ijodkor subyekti bilan o'rganiladi. G'oyaning tug'ilish joyi – ijodkor adabiy-estetik tafakkurining manbalari izlanadi. Badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, mezonlari, tanqidiy tahlili kabi keng qamrovli masalalarni fanga olib kirgan olimlarning faoliyatida ham shaxsning fenomenal tayyorgarligi yotadiki, bu o'zgacha sezgi, anglam olamlari va uzluksiz mehnat bilan yuzaga chiqadi. Adabiyotshunoslarga tahlil uchun manbalarni aniqlab, badiiy matnni taqdim etadigan manbashunos-sharqshunoslarning natijadorligida esa til bilish, tarixni yaxshi o'zlashtirish, manbani o'qiy olish kabi bir qancha bilim va ko'nikmalar natijaga yetaklaydi. Mashhur sharqshunoslarning aksariyati yoshlikdagi yaxshi ta'lim, chuqur bilim, ko'p tillilik orqasidan kuchli sharqshunos bo'lib yetishganlar. Aynan fransuz, nemis, rus, ingliz sharqshunoslari bir paytning o'zida kamida 4 ta va 10 tagacha tillarni bilgani uchun ham fanda fundamental ishlarni bajara olganlar. Ular orqali fors, arab, turkiy adabiyot namunalari Yevropaga kirib borgan. Britaniya muzeyidagi manbalarni tavsiflash orqali butun Sharq adabiyoti, tarixini Yevropaga tushuntirib, tanishtirgan olim Charlz Riyoning mehnat faoliyatida ham ana shu tayyorgarlik yetakchi omil bo'lgan. Shunga ko'ra olimning tarjimaiy holiga ham qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Charlz Pyer Genri Riyo (Charles Pierre Henri Rieu, 1820 – 1902) 1820-yil Shveysariyaning Jeneva shahrida tugʻilgan. U dastlab Jeneva akademik universiteti, soʻngra Bonn universitetida mashhur ustozlar qoʻlida tahsil oladi. Mashhur fransuz sharqshunosi Silvester de Sasining shogirdi Jean Humbertdan sharq tillarini oʻrganadi. Sanskrit, nemis, arab, fors, turkiy tillarni chuqur oʻzlashtiradi. Bonn universitetida (1843) arab shoiri Abul Ala hayoti, ijodi manbalari asosida nomzodlik ishini himoya qiladi. Parijdagi “Osiyo jamiyati” aʼzoligiga saylanadi (1844). 1844-yilda Sankt-Peterburgga boradi, u yerda rus va nemis olimi, hindshunos Otton Nikolaevich Byotlink (nem. Otto von Böhtlingk; 1815 – 1904) bilan birgalikda sanskrit lugʻatini (Hemakandra's Abhidhânakintâmani) nemis tiliga oʻgʻirish ustida ishlaydi. Lugʻat matnini nashrga tayyorlash jarayonida Bodlean kutubxonasidagi noyob manbani olish uchun Oksfordga boradi va 1847-yildan Britaniya muzeyi Sharq qoʻlyozmalari boʻlimiga ishga kiradi. Oksford va Kembrijda professor lavozimida arab tilidan dars beradi. U Britaniya muzeyidagi 20 yillik faoliyati davomida Sharq qoʻlyozmalarini kataloglashtirdi va bu yerdagi manbalarni ilk marta tartibga solgan sharqshunos boʻldi. Riyo Sharq adabiyoti manbalarini jamlagan “Fors qoʻlyozmalari katalogi” (4 jild, 1879-1895) va “Turkiy qoʻlyozmalar katalogi” (1888)ni tuzadi. Har ikki toʻplam Sharq tarixi, adabiyotiga oid chuqur oʻrganishlar natijasida yuzaga chiqqan. Keyingi davr sharqshunoslari oʻz ishlarida Charlz Riyoʻning mazkur kitobiga tayanadilar, har bir asarning Angliyadagi ilk tadqiqotchisi sifatida eʼtirof etadilar.

Dunyodagi har bir noyob manbalarga ega fondlarning oʻziga xos boyish tarixi bor. Sharq adabiyotiga tegishli manbalar koʻpincha davlatlarning harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati, tijorat maqsadlarida boshqa davlatlarga borib qolgani yaxshi maʼlum. Angliyaga koʻpgina kitoblar aksariyat Hindiston mustamlakasida, Eron davlati, Turkiya bilan aloqalari, harbiylar, amaldorlarning sayohatlari, diplomatik aloqalari orqali borib qolgan. Jumladan, Bodleandagi Jon Bardo Elliot fondi, Gore Ouseley, Uilyam Ouseley kabi shaxslarning nomlari bilan bogʻlanuvchi toʻplamlar oʻsha shaxslar faoliyati bilan bogʻliq.

Charlz Riyo Britaniya muzeyidagi 20 yillik faoliyati davomida kitoblarning toʻliq va sharhli tavsifini yaratgan. Olimning bibliografik tasniflari bir qancha xususiyatlariga koʻra alohida ilmiy qimmat kasb etadi:

1. Koʻrsatilayotgan manbaning eski oʻzbek yozuvidagi nomi, muallifi, koʻchirgan xattot, yaratilgan davri aniq koʻrsatilgan.
2. Mazkur manbani ilk bora oʻrgangan olimlarning tadqiqotlari koʻrsatilgan. Bu holat tadqiqotchi uchun qulaylik yaratadi. Qolaversa, bibliografik tavsifning ilmiy apparatini kuchaytirgan.
3. Ijodkor yashagan davr, hukmdorlar, davr tarixiga doir muhim maʼlumotlar aytib oʻtilgan. Matndan eski oʻzbek yozuvida parchalar berilgan, asar mazmuni esa ingliz tilida tushuntirilgan.
4. Tavsiflarda eng koʻp temuriylar davri juda yaxshi yoritilgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosi haqidagi keng va batafsil maʼlumot bergan. Taʼriflanayotgan asarlar va davrni yoritish uchun Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlaʼ as-saʼdayn majmaʼ bahrayn”, Boburning “Boburnoma” asarlariga koʻproq tayangan.

Charlz Riyo tomonidan tuzilgan “Britaniya muzeyidagi forsiy tilli qo‘lyozmalar katalogi” (“Catalogue of the persian manuscripts in the British museum”, 1895)da jami 425 ta qo‘lyozma haqida ma‘lumot berilgan [Charles Rieu 1985]. Forsiy shoirlar qatorida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi haqida ham ma‘lumot berib o‘tadi. XVII asrda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (№104) tazkirasi fors tiliga Shoh Ali ibn Abdul Ali tomonidan ko‘chirilgani, Din Muhammadxon davrida forsiy tilga e‘tibor kuchaygani va shunga ko‘ra Alisher Navoiy tazkirasini forsiy tilga o‘g‘irish ehtiyoji tug‘ilgani haqidagi ma‘lumotlarni berib o‘tadi.

Turkiy adabiyot manbashunosligi uchun qimmatli bo‘lgan “Turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (“Catalogue of the Turkish manuscripts in the British museum”) 1988-yil Londonda nashr etilgan. Katalog 6 bobga taqsimlangan. Katalogda Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalari 6-bobda – “Turkiylar yoki Sharqiy turklar” bo‘limida berilgan 01, 263-302). Jumladan, leksikografiya qismida Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlar “Abushqa”, “Sanglox”, “Maboni al-lug‘at” ta’riflanadi.

“Turk nasri” qismida “Majolis un-nafois” tavsiflanib, eski o‘zbek yozuvida asardan parchalar berilgan [Charles Rieu 1888: 273-274]. Tavsiflarda Navoiy chig‘atoy shoirlari ichidan turkiy tilning ravnaqi yo‘lida eng ko‘p ijod qilgani, “Boburnoma”dagi ma‘lumotga ko‘ra, Navoiy Hirotda tug‘ilgan bo‘lsa ham, lekin Farg‘onaning bosh shahri Andijon shevasida ijod qilgani aytiladi. 8 ta majlisni tarixiy ma‘lumotlariga qadar batafsil sharhlab, fransuz olimi F.Belin tomonidan tarjima qilingani eslatiladi. Qizig‘i, Charlz Riyo ijodkorlar haqidagi ma‘lumotlarga to‘la tazkira ichidan Muhammad Solihga kengroq hamda Husayn Boyqaroga qisqaroq to‘xtalib o‘tadi. Muhammad Solihning Shayboniynoma atab “Shayboniynoma” dostoni yozgani, uni Herman Vamberi nemis tiliga tarjima qilganini aytadi. Shuningdek, otasi Nursaidbek va bobosi Amir Shohmalik tarixi haqida ham ma‘lumot berib o‘tadi [Charles Rieu 1888: 274]. Ko‘rinadiki, Charlz Riyo Muhammad Solih va temuriylar, shayboniylar haqida yaxshigina ma‘lumotga ega bo‘lgan. Muzeyda yana Muhammad Solihga nisbat beriluvchi “Tavorixi guzida nusratnoma” asari qo‘lyozmasi (№ 3222) ham mavjud. Olim mazkur kitobni tavsiflash jarayonida qo‘lyozmaning 40-sahifasida va matn oxirida Muhammad Solih ismi qayd etilgani, bu kitob olimlar tomonidan ham unga tamsil berilganini yozadi [Charles Rieu 1888: 276–280].

Shuningdek, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, “Devon”i Navoiy” kabi asarlari manbalari tavsifida asarning yozilish sabablari, vaqti, tarixiy sharoit va shaxslar, asar mazmuni, xorijdagi tarjimalari va nashri kabi qimmatli ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. “Majolis un-nafois”ning 3 ta, “Mahbub ul-qulub”ning 1 ta, “Xamsa”ning 4 ta, lirik devonlarining 9 ta qo‘lyozma nusxasi tavsiflangan. Alisher Navoiy asarlari uchun Mirzo Mehdixon tomonidan tuzilgan forsiy-turkiy lug‘at – “Sanglox” qo‘lyozmasi ta’rifida berilgan katta hajmdagi ma‘lumotlar sirasida Navoiy asarlari haqida “Bobur xotiralari”da ham bor, deya qayd etadi [Charles Rieu 1888: 266]. “Majolis un-nafois” tavsifida Alisher Navoiy turkiy adabiyotda eng sermahsul ijodkorligi, mazkur ma‘lumotlar Bobur asarida yoritilgani, Navoiy garchi Hirotda tug‘ilib o‘sgan bo‘lsa-da, o‘z asarlarida turkiy tildagi shevalardan

foydalangani, Farg'onaning bosh shahri Andijon shevasida yozganini ta'kidlaydi [Charles Rieu 1888: 273]. Shu o'rinda olim "Boburnoma"dagi "Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim, Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur", degan qaydlarini asos qilib ko'rsatadi. Ch.Riyo o'z ma'lumotlarini dalillash, ilmiy aniqligini kuchaytirish uchun "Boburnoma"ning Ilminskiy nashriga asoslangan, manbadan olingan o'rinlarni aniq ko'rsatib o'tgan. "Sab'ai sayyor" asari qo'lyozmasi tavsifida Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamonga tarbiyaviy nasihatlar qilgani, shahzoda haqida yana Bobur asaridan ma'lumot olish mumkinligini eslatadi [Charles Rieu 1888: 293]. Husayn Boyqaroning ikkinchi o'g'li Shohg'arib mirzo ta'rifi ham Fransua Belin tarjimasidagi "Majolis"da, Bobur asarida borligi, yana "Devoni Navoiy" tavsifidagi qaydlarda eslab o'tiladi. "Qisas ar-Rabg'uziy" asari qo'lyozmasi ta'rifida Rabg'uziyning tili Alisher Navoiy va Bobur tiliga nisbatan qadimiyligi, turkiy tilning fonetik xosliklari, arxaik qatlamlarini o'zida jamlagan til ekanligini aytadi [Charles Rieu 1888: 271]. Olimning yondashuvlariga ko'ra, kitob turkiy tili adabiyotning Yevropadagi manbalari, o'rta asr tarixi va turkiy adabiyotning xorijsda ilk o'rganilishi, xususan, Navoiy ijodiga munosabati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir.

"Turkiy qo'lyozmalar katalogi"da Boburning bitta asari – "Voqeoti Boburiy" manbasi tavsiflangan. "Devoni Husayniy" qo'lyozmasi ta'rifida Husayn Boyqaroning shaxsiyati, u haqidagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Som Mirzo Safaviyning "Tuhfai Somiy", Boburning "Boburnoma" asarida, yana uning ayrim baytlari "Riyo ush-shuaro", Velyaminov-Zernov nashrga tayyorlagan "Abushqa"da uchrashini aytadi [Charles Rieu 1888: 256]. Shu o'rinda Boburning "Boburnoma"da Husayn Boyqaroga bergan "Taxallusi Husayniy edi. Ba'zi baytlari yomon emastur, vale mirzoning devoni tamom bir vazndadur" degan fikrlarini ingliz tilida misol qilib keltiradi.

E'tiborlisi, Charlz Riyo bahsli fikrlarni ham qayd etib o'tishni ma'qul ko'radi. Sakkokiy devonini (№2079) ta'riflashda "Majolis un-nafois"dagi Navoiyning Samarqandda bo'lgani va Sakkokiy va Lutfiyning o'xshash g'azallari haqidagi fikrlarini keltiradi. Bu bilan ingliz kitobxoniga Sharq adabiyoti va adiblari haqida muayyan darajada tasavvurlar berishga erishadi. Bunday ma'lumotlar albatta adabiyotshunoslar e'tiborini tortishi tabiiy [Charles Rieu 1888: 284].

Yana bir noyob manba – Muhammad Shayboniyxonning yagona qasidasi kiritilgan to'plam bo'lib, unda o'zbek adabiyotida aksariyat kamyob nusxalari bor deb qaraluvchi asarlar jamlangan. *Qo'lyozma 1509-yili (h. 914) Hirotda ko'chirilgan, 7914 raqam ostida saqlanadi. To'plamda Shayboniyxonning "Bahr ul-ho'do" nomli qasidasi, Alisher Navoiyning "Hamsat ul-mutahayyirin", "Gul va Navro'z", "Maxzan ul-asror", Xo'jandiy "Latofatnoma"si, "Devoni Lutfiy", Amiriy "Dahnoma"si, Said Ahmadning "Taashshuqnoma", Xorazmiy "Muhabbatnoma"si, Yaqiniyning "O'q va yoy munozarasi", Ahmadiyning "Tanbura" ("Sozlar munozarasi" nomi bilan berilgan), Yusuf Amiriyning "Bang va chog'ir" asarlari kiritilgan* [Charles Rieu 1888: 284–291].

Shayboniyxonning "Bahrul ho'do" asari tavsifida matn "Tangriga til birla ayg'il, ey ko'ngul, hamdu sano, /Kim, siposu shukr loyiqdur anga bemuntaho" misralari bilan boshlangani, Shayboniyxon hayoti, ijodi,

yurishlari, umri xotimasi haqida ma'lumot beradi. Shayboniyxon Boburning raqibi, Bobur uning she'riy iste'dodini kamsitgan, deya qayd etadi [Charles Rieu 1888: 285].

Charlz Riyo Sankt-Peterburgda ham ma'lum muddat faoliyat olib borgan, Sharq adabiyotini chuqur o'zlashtirgan. Uning asarlarga bergan ta'riflari ilmiy asosga ega bo'lib, bu o'sha davrga tegishli manbalarni o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan. Jumladan, 1888-yilda "Gul va Navro'z"ni Lutfiyniki deb berishi, "Maxzan ul-asror" muallifi haqidagi bahslarni bugungi fikrlar bilan qiyosiy tekshirish zarurati bor.

Mazkur noyob to'plam 1509-yili Hirotida ko'chirilgan. Bu paytda Hirot Shayboniyxon qo'l ostida edi. Qo'lyozmaning avvalida Shayboniyxonning "Bahr ul-ho'do" qasidasi berilishiga ko'ra u o'zbek xoni buyrug'i bilan ko'chirilgan bo'lishi mumkin. Bu manba Shayboniyxon qasidasi kiritilgan ilk manba ham deyiladi. Demak, Shayboniyxon turkiy adabiyot namunalarini ko'chirishga buyruq bergan. Qo'lyozmadagi faqat o'zbek adabiyotiga tegishli asarlar jamlanmasi ham bunga ishora qiladi. Manbalari noma'lumligicha qolgan noma va munozara janridagi asarlar mazkur to'plamga Hirotidagi kutubxonalardan ko'chirilgani aniq. Aynan ushbu to'plamga kirgani uchun ham ularning o'sha davrga oid matni to'liq saqlanib qolgan. Har holda bu davrda Hirotida temuriylar asos solgan adabiy maktab, xattotlik maktabi davomchilari bor edi. Shayboniyxon ularning imkoniyatidan foydalangan.

22b-sahifada "Hofiz Muhammad al kotib" tarzida qayd etilgani yoziladi. E'tibor beramiz, Hofiz Muhammad kotib Alisher Navoiyning shaxsiy kotiblaridan biri bo'lgan. Mazkur kotib haqida adabiyotshunos B.Rajabova Xondamirning "Makorim ul-axloq", "Xulosat ul-axbor" asarlaridagi ma'lumotlarga tayanib ma'lumot berib o'tgan [Rajabova 2022]. Navoiy kutubxonasida arab olamida Qur'oni karim nusxalarini ko'chirish bilan mashhur bo'lgan xattot Yoqut al-Musta'sim ko'chirgan Qur'oni karim borligi, sahifalariga shikast yetgani, o'sha kunlarda Mavlono Shams Ma'ruf ko'chirgan nusxa Navoiyning qo'lga tushib qolgani va uni Xoja Hofiz Muhammadga bergani, so'ng olti xil xat turini biladigan, nasta'liq yozishda tengi yo'q bo'lgan Hofiz Muhammad sahifalarni osonlik bilan tiklagani aytiladi [Xondamir 2015: 136–137]. Demak, Husayn Boyqaro saltanati tugatilgandan so'ng bu madaniy muhit vakillari Shayboniyxon qo'lida qolgan. Shayboniyxon qasidasining birinchiga qo'yilishi ham bejiz emas. Umuman, kitobning Alisher Navoiyning shaxsiy kotibi Hofiz Muhammad kotib tomonidan ko'chirilgani muhim ma'lumot. Yana Ubaydiy devonining (№7907) Sultonali Mashhadiy ko'chirgan qo'lyozmasida ham Hirotning o'zbek xonlari tomonidan bosib olinishi voqeasiga doir tarixiy ma'lumotlarni qayd etadi [Charles Rieu 1888: 300].

Xulosa

Charlz Riyo Sharq adabiyoti manbalarini XIX asrdayoq kataloglashtirgan va ingliz tilida izohlari bilan dunyoga tanitishda katta hissa qo'shgan olim sifatida e'tirofga sazovor. Dunyo tarixida sharqshunoslikka hissa qo'shgan olimlarning aksariyati ko'p tilli bo'lgani va o'zi o'rgangan millat adabiyotiga katta muhabbat bilan yondashgani

kuzatiladi. Charlz Riyoning ilmiy laboratoriyasiga xos kuzatishlar uning yutuqlari tinimsiz mehnat natijasi ekanligini ko'rsatadi.

Charlz Riyo tavsiflarini shunchaki kitob haqidagi qisqa ma'lumot deb bo'lmaydi. Ulardagi Sharq, xususan, turkiy adabiyotning o'rta asriga xos ma'lumotlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy holati, tarixiy shaxslar, asarning yozilishiga zamin yaratgan muhit, adabiy jarayon haqida tasavvur bera oladi. Bunday batafsillik o'z davrida Yevropani Sharq bilan tanishtirishda muhim vosita vazifasini o'tagan. Ikkinchidan esa, Yevropadagi manbalarni ko'rish imkoni bo'lmagan adabiyotshunoslar uchun Britaniya muzeyi sirlarini ochuvchi bibliografik manba sifatida qimmatli sanalgan. Charlz Riyo tavsiflagan har bir manba fanda o'rganilishi zarur masalalar sirasiga kiradiki, ayrimlari hatto dunyoda yagona nusxa sanaladi. Kitobda tavsiflangan qo'lyozmalarning qadimiyligi ulardan tayanch manba sifatida foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Charlz Riyo bajargan ishlar manbashunoslik, matnshunoslikka doir tadqiqotlar uchun manba va matn tarixi, qiyosiy-matniy, qiyosiy-tarixiy masalalarni yoritishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

B. d'Herbelot, Bibliothèque orientale, ou dictionnaire universel contenant tout ce qui fait connoître les Peuples de l'Orient, t. III, La Haye, J. Neaulme & N. Van Daalen, 1777.

Charles Rieu. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. — London, 1895.

Charles Rieu. Catalogue of the Türkish Manuscripts in the British Museum. — London, 1888. — 345 p.

Gustav Flügel. (1865). *Die Arabischen, Persischen und Türkischen Handschriften der Kaiserlich-Königlichen Hofbibliothek zu Wien*. Vol. 2: 323 pp.

Hartmann M. Čaghataisches // Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients. Herausgeben von Martin Hartmann (Berlin). — Berlin: Universitaetsbuchhandlung, 1902. — Heft 2. 108 S.

Herman Vamberi. Cagataische Sprachstudien enthaltend grammatikalischen Umriss, Chrestomathie und Worterbuch der Cagataischen Sprache, Leipzig, 1867. — 359 p.

[https://en.wikisource.org/wiki/Dictionary](https://en.wikisource.org/wiki/Dictionary_of_National_Biography,_1912_supplement/Rieu,_Charles_Pierre_Henri)

of_National_Biography,_1912_supplement/Rieu,_Charles_Pierre_Henri
Davids Arthur Lumley. A Grammar of the Turkish language:: with a preliminary discourse on the language and literature of the Turkish nations, a copious vocabulary, dialogues, a collection of extracts in prose and verse, and lithographed specimens of various ancient and modern manuscripts. London: Parbury & Allen, 1832. — 305 p.

Mémoires sur diverses antiquités de la Perse et sur les médailles des rois de la dynastie des Sassanides: suivis de l'histoire de cette dynastie trad. du Persan de Mirkhond / par A. I. Silvestre de Sacy. 1793.

[Muhammad Shayboniyxon. Bahrul ho'do. Qasida & Ismoil Bekjon. Hidoyat dengizi | Xurshid Davron kutubxonasi](#)

Tojiboeva O. T. Aleksandr Semyonov — navoiyshunos, bibliograf olim // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022. — № 2 (43). — B. 185-194.

Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. — Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. — Б. 136 – 137.

Захириддин Мухаммад Бобур. 1986. Бобурнома. Қозон (Н.Ильминский) нашри. Қозон.

Семенов А. А. Каталог рукописей исторического отдела Бухарской Центральной Библиотеки. — Ташкент, 1925.

Семенов А. А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. — Ташкент, 1940.

Семенов А. А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей Фундаментальной библиотеки государственного университета. — Ташкент, 1935.

Семенов А. А. Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке УзССР. — Ташкент: Гостехиздат, 1940. — 48 с.

Семенов А. А. Описание таджикских, персидских, арабских и тюркских рукописей Фундаментальной библиотеки Среднеазиатского Государственного университета. Вып. 2. — Ташкент, 1956.

Сотимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении. Автореферат дисс. по филол. — Москва, 1998. — 54 стр.

[Унсия \(Буюк мутафаккир Алишер Навоийнинг шахсий кутубхонаси хақида\) — HURRIYAT](#)

References

d'Herbelot, B. (1777). *Bibliothèque orientale, ou dictionnaire universel contenant tout ce qui fait connoître les Peuples de l'Orient*, vol. 3, The Hague, J. Neaulme and N. Van Daalen. (In Fr.)

Davids, A. L. (1832). *A Grammar of the Turkish Language*, London, Parbury and Allen.

Flügel, G. (1865). *Die arabischen, persischen und türkischen Handschriften der kaiserlich-königlichen Hofbibliothek zu Wien*, vol. 2, Vienna. (In Ger.)

Ghiyasiddin Khondamir. (2015). *Makorim ul-akhloq* (Noble Moral Qualities), Tashkent, G'afur G'ulom nomidagi NMIU, pp. 136—137. (In Uzb.)

Hartmann, M. (1902). *Čaghataisches*, Berlin, Universitaetsbuchhandlung. (In Ger.)

- Rieu, C. (1888). *Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum*, London.
- Rieu, C. (1895). *Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum*, London.
- Semenov, A. A. (1925). *Katalog rukopisei istoricheskogo otdela Bukharskoi Tsentral'noi Biblioteki* (Catalogue of Manuscripts of the Historical Department of the Bukhara Central Library), Tashkent. (In Rus.)
- Semenov, A. A. (1935). *Opisanie persidskikh, arabskikh i turetskikh rukopisei Fundamental'noi biblioteki gosudarstvennogo universiteta* (Description of Persian, Arabic and Turkish Manuscripts of the Fundamental Library of the State University), Tashkent. (In Rus.)
- Semenov, A. A. (1940). *Materialy k bibliograficheskomu ukazatelyu pechatnykh proizvedenii Alishera Navoi i literatury o nem* (Materials for the Bibliographic Index of Printed Works by Alisher Navoi and Literature about Him), Tashkent. (In Rus.)
- Semenov, A. A. (1940). *Opisanie rukopisei proizvedenii Navoi, khranyashchikhsya v Gosudarstvennoi publichnoi biblioteke UzSSR* (Description of Manuscripts of Navoi's Works Kept in the State Public Library of the Uzbek SSR), Tashkent, Gostekhizdat. (In Rus.)
- Semenov, A. A. (1956). *Opisanie tadzhikskikh, persidskikh, arabskikh i tyurkskikh rukopisei Fundamental'noi biblioteki Sredneaziatskogo gosudarstvennogo universiteta*, vol. 2, Tashkent. (In Rus.)
- Silvestre de Sacy, A. I. (1793). *Mémoires sur diverses antiquités de la Perse et sur les médailles des rois de la dynastie des Sassanides*, Paris. (In Fr.)
- Tojiboeva, O. T. (2022). *O'zbekistonda xorijiy tillar*, No 2 (43), 185—194. (In Uzb.)
- Vambéry, H. (1867). *Chagataische Sprachstudien* (Chagatai Language Studies), Leipzig. (In Ger.)
- Zahiriddin Muhammad Babur. (1986). *Baburnama* (Book of Babur), Kazan, N. Il'minskii edition. (In Uzb.)